



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
Мохигул Эркиновна Ахтамова Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
Бахтиёр Васиевич Насимов Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov Sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
Muxabbat Sameyevna Sharipova Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
Зафаржон Яшинович Рахманов Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
Саёхат Зафаровна Зарипова Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
Ithom Begmatdulobovich Mattiyev Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Rahmonkulova Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

3. Калугина Я.Н. Совершенствование системы кредитования субъектов предпринимательской деятельности банками с государственным участием в Российской Федерации. Диссертация на соискание ученой степени к.э.н. -СПб.: 2019. -229 с.
4. Батычко В.Т. Финансовое право. Конспект лекций. Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2009.
5. Мазикова Е. В. Коммерческие банки и малый бизнес: основные направления сотрудничества // Молодой ученый. – 2014. – №3. – С. 466-469.
6. Соловов Н.Н. Организация банковского кредитования малого предпринимательства / Н.Н. Соловов // Диссертация... кандидата экон. наук: 08.00.10 - «Финансы, денежное обращение и кредит». - Санкт-Петербург: ИНЖЭКОН, 2010. – С. 34.
7. Каримова А. Оценка современного состояния рынка и условия кредитования субъектов туристических услуг Республики Узбекистан. Сервис илмий-амалий журнал. 2023 йил 2-сон. 148-153 б.
8. Жураханов М.Э. Анализ деятельности субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства Республики Узбекистан и пути развития. MASHINASOZLIKILMIY-TEKNIKA JURNALI SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL. No4,2024 yil
9. Устинова, О.В. Проблемы кредитования малого и среднего бизнеса // Фундаментальные исследования. – 2016. – № 2-3. (659-663. –с) ISSN 1812-7339.

<p>А.Каримова, О.Максудов Ўзбекистон республикасида тадбиркорлик фаолиятининг таҳлили</p>	<p>A.Karimova, O.Maksudov Analysis of entrepreneurial activities in the Republic of Uzbekistan</p>
<p>Аннотация. Ушбу мақолада тадбиркорлик фаолиятининг моҳияти баён этилган. Хорижий ҳамда маҳаллий иқтисодчи олимларнинг қарашлари изоҳланган. Тармоқлар ҳиссаси ва ЯИМ ўсиш динамикаси, шунингдек Ўзбекистондаги хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий тармоқлари бўйича асосий кўрсаткичлари ҳажми таҳлил қилинган.</p> <p>Калит сўзлар: банк, тадбиркорлик, кредит, молиявий ресурслар, бизнес, солиқ, рақобат, инновацион ғоялар, компания, ҳисса, ўз маблағлари, қарз маблағлари.</p>	<p>Abstract. This article discusses issues related to the essence of entrepreneurial activity. The views of academic economists on this concept, both foreign and domestic researchers, are presented. The analysis of the dynamics of the contribution of industries and GDP growth, as well as the volume of key indicators of business entities by economic sectors in Uzbekistan, is carried out.</p> <p>Keywords: bank, entrepreneurship, credit, financial resources, business, tax, competition, innovative ideas, company, contribution, own funds, borrowed funds.</p>

Sanjar Jaloliddin o‘g‘li Abdusaidov – TDIU SF doktoranti

SUG‘URTA KORXONALARIDA MHXSNI QO‘LLASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘urta korxonalarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni yechish uchun taklif etiladigan yechimlar bayon qilingan.</p> <p>Kalit so‘zlar: xalqaro standartlar, sug‘urta korxonalari, MHXS, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya standartlari, sug‘urta shartnomalari.</p>

Kirish. Sug‘urta xizmatlari iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan, ayniqsa zamonaviy dunyoda. Sug‘urta nafaqat shaxsiy xavflarni kamaytirish, balki bizneslar va davlatlar uchun ham iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug‘urta kompaniyalari, o‘z faoliyatida mijozlar va davlat oldida moliyaviy hisobdorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarning moliyaviy holatini aniq va ishonchli aks ettirishga yordam beradi. Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalarda buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishi, nafaqat ularning moliyaviy holatini yaxshilash, balki xavf-xatarlarni boshqarishda ham muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayoni, sug‘urta kompaniyalariga

yanada samarali boshqaruvni ta'minlash va qonuniy me'yorlarga muvofiqligini saqlash imkonini beradi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining murakkabligi va ko'plab moliyaviy operatsiyalari buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishning ahamiyatini oshiradi. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish orqali sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini yanada shaffof va samarali ravishda olib borishlari mumkin.

Sug'urta korxonalari global iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi, chunki ular nafaqat mijozlarni xavf-xatarlardan himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham katta hissa qo'shadi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirish va uning shaffofligini ta'minlash uchun samarali moliyaviy hisobot tizimi zarur. Bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish, kompaniyalar uchun muhim masala bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat korxonaning moliyaviy faoliyatini aniq va ishonchli tarzda ko'rsatish, balki global bozor talablariga mos ravishda faoliyat yuritishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Professor K.B.Urazovning takidlashicha Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish, diversifikatsiyalash, yaratilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar sifatini, raqobatbardoshligini va eksportbopligini oshirish va tannarxini pasaytirish ustuvor hisoblangan hozirgi sharoitda xalqaro buxgalteriya hisobini takomillashtirishning asosiy masalalardan hisoblanadi.[1]

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning fikricha Moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning sifatini oshirish maqsadida uning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg'or usul va uslublardan foydalanish, xalqaro instrumentlar va standartlarini hamda MHXSlar talablariga to'liq muvofiq keladigan takomillashgan namunaviy moliyaviy hisobot formatlarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.[2]¹

Tadqiqotchi Qudbiyevning fikricha xalqaro hisobot standartlarini joriy etish mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning yangi bosqichiga o'tadi. MHXS tomonidan tuzilgan hisobot, o'zbek korxonalari, tashkilotlari va kompaniyalari faoliyatida real jarayonlarni aks ettiradi. Aktivlar bozor qiymati bo'yicha hisobga olinadigan bo'lsa, zaxiralar to'g'ri hisoblansa, dunyoning aksariyat mamlakatlarida tashqi foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'ladi. Natijada, MHXSni joriy etish nafaqat o'zbek korxonalari, kompaniyalar va banklarning xalqaro darajaga chiqishiga, balki investitsiyalarni jalb qilishga ham yordam beradi.[3]² Tadqiqotchi olim Valiyev Hayotbekning fikricha MHXSdan birinchi foydalanish muammolari ham uslubiy, ham tashkiliy bo'lishi mumkin.[4]

MHXS tamoyilari orqali moliyaviy hisob va hisobotlarni tashkil etish, maxsus davlat dasturlari doirasida amalga oshirilmasligi, davlat tomonidan jiddiy qo'llabquvvatlanmasligi kelgusi yillarda o'tishning asosiy vazifalarini hal yetishga imkon bermaydi.³[5] Xalqaro standartlar darajasida milliy buxgalteriya standartlarining iqtisodiy tushunchalaridan maksimal darajada foydalanish tavsiya etiladi. [6]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro standartlar asosida sug'urta xizmatlarini tashkil etish va ular buxgalteriya hisobini ham xalqaro standartlarga o'tkazish bugunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Sug'urta tizimini tadbirkorlik subyektlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishning samarali shakli sifatida, shuningdek, sug'urta kompaniyalari tomonidan milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritish uchun mablag'larni jalb qilish usuli sifatida ko'rib chiqadi. Bugungi kunda sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar mamalakatimizda kun sayin ko'payib bormoqda va ular hisobi va hisobotini xalqaro

¹ <https://staff.tiiame.uz/storage/users/797/articles/fibZuqqdmpvrlrvarYI8215pOqoroEO4TxB1CFdX.pdf>

² Qudbiyev, Nodir Tohirovich. "Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi." *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali* 1.2 (2021): 56-64.

³ Tohirovich, Qudbiyev Nodir. "International financial accounting standards in Uzbekistan." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 328-333.

standartlar asosida tashkil etish ham turli masalalarni o‘z ichiga qamrab olmoqda.




1-rasm. Mamalakatlar bo‘yicha 2022 yilda sug‘urta mukofotlarining o‘shish surati.¹

Markesand Markes tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarini o‘rganganimizda 2022 yilda hayot sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta mukofotlari Kolumbiya, Yekvador, Chili va Kostarika davlatlarida yuqori o‘shish darajasiga yega bo‘lgan bo‘lsa, Portugaliya, Irlandiya va Finlandiyalarda kamayish darajasini ko‘rish mumkin.

Mamalakatlar bo‘yicha 2022 yilda sug‘urta mukofotlarining sug‘urta turlari bo‘yicha taqsimot qilganda avtotransport sug‘urtasi 34.7 % ni, yong‘in va boshqa mulkiy zararlarni sug‘urtalash 21.4% ni, baxtsiz hodisa va sog‘liq 21.89% ni hamda boshqa hayot sug‘urtasi bo‘lmagan (dengiz, aviatsiya va boshqa transport sug‘urtasi; yuklarni sug‘urtalash; moddiy zararni sug‘urtalash; umumiy javobgarlik sug‘urtasi; shartnoma qayta sug‘urtalash) 22.1%ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

¹ https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/insurance/indicator-group/english_ead4dc70-en



2-rasm. Mamlakatlar bo'yicha 2022 yilda sug'urta mukofotlari-ning sug'urta turlari bo'yicha taqsimoti.¹


Mamlakatimizda samarali hamda barqaror milliy sug'urta tizimini yaratish sug'urta xizmatlari bozorini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqarish va ularni bosqichma-bochqich amalga oshirishni talab etadi. Sug'urta bozor munosabatlarning muhim unsurlaridan bo'lib maxsus vazifalarni bajaradi. Zero, Yurtboshimiz ham, respublikada sug'urta sohasini rivojlantirish masalasiga o'z chiqishlarida bir necha bor, bozor iqtisodiyotining infratuzilmasi institutlarini rivojlantirish muhimligini, birinchi o'rinda bu sug'urta kompaniyalarga tegishliligi to'g'risida to'xtalib o'tgan. Jumladan, 2019 yilda 10 iyul kuni sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishida, davlatimiz rahbari o'zining qilgan ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: “Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o'rni hozircha yetarli emas”².

Sug'urta korxonalarini uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo'llash, yirik miqyosdagi operatsiyalar va murakkab moliyaviy tizimlarni boshqarish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) va Xalqaro sug'urta kompaniyalari uchun moliyaviy hisobotlar bo'yicha standarti (XSC) kabi normativ hujjatlar buxgalteriya hisobini birxillashtirish, malakali va shaffof moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun zarurdir. Biroq, bu xalqaro standartlarni sug'urta korxonalarida joriy qilishda bir qator muammolar va ularni hal qilish uchun yechimlar mavjud.

Sug'urta kompaniyalari uchun xalqaro standartlar, ayniqsa, XMS 17 (sug'urta shartnomalari) kabi murakkab me'yorlarni joriy qilishda ko'plab qiyinchiliklar tug'diradi. Ularni amaliyotga tadbiq etishning murakkabligi, tizimlarning murakkabligi va yuridik me'yorlarga mos kelmaslik xavfi mavjud. Mahalliy buxgalteriya standartlari va xalqaro me'yorlar o'rtasida farqlar bo'lishi mumkin. Mahalliy qonunlar, soliqlar, sug'urta turlari va amaliyotlari xalqaro tizimga mos kelmasligi, buxgalteriya hisobotlarini tayyorlashda murakkabliklar yaratadi. Xalqaro standartlarni qo'llash uchun yangi texnologiyalar va dasturiy ta'minot talab etiladi. Bu esa mavjud buxgalteriya tizimlarini yangilash va ma'lumotlarni o'zgartirish zaruriyatini tug'diradi. Sug'urta shartnomalarining o'zgacha xususiyati, uzoq muddatli va murakkab moliyaviy bitimlarning mavjudligi, xalqaro buxgalteriya hisoboti uchun murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, XMS 17 bo'yicha sug'urta shartnomalarini tan olish va tasniflashda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ko'plab o'zgarishlar

¹ https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/insurance/indicator-group/english_ead4dc70-en

⁴ <https://uza.uz/uz/posts/su-urta-bozorini-rivozhlantirish-agentligi-tashkil-etiladi-10-07-2019>



3-rasm. Xalqaro standartlarni sug'urta korxonalarida joriy qilishda uchraydigan muammolar.

talab qilinadi. Sug'urta korxonalarini uchun hisobotlarning to'g'riligini va shaffofligini ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin. Xalqaro standartlar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish, soliq tizimlari va xalqaro shartnomalar bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Mahalliy qonunlar va xalqaro standartlar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash uchun huquqiy maslahatlar olish, ikki tizimni o'zaro moslashtirish. Mahalliy va xalqaro normativlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish uchun professional konsalting xizmatlaridan foydalanish.

2. Xalqaro standartlar bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish, buxgalteriya va moliya bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Yangi standartlarga o'tish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish, boshlanishda kichik o'zgartirishlarni kiritish..

3. Yangi xalqaro me'yorlarga mos ravishda sug'urta shartnomalarini qayta ko'rib chiqish va tasniflash. Xalqaro standartlar va sug'urta amaliyotlari haqida tajribaga ega bo'lgan buxgalterlar va moliya mutaxassislarini ishga olish.

4. Xalqaro standartlarga mos keladigan yangi buxgalteriya dasturlarini va tizimlarini joriy etish. Buxgalteriya va IT bo'yicha malakali xodimlarni tayyorlash, texnologiyalarning zamonaviy talablariga mos kelishini ta'minlash.

5. Buxgalteriya tizimlarini avtomatlashtirish va moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish jarayonini soddalashtirish. Xalqaro standartlarga to'liq mos ravishda amalga oshirilgan audit va tekshiruvlarni tashkil etish, buxgalteriya jarayonlarining to'g'ri ishlashini ta'minlash.

6. Soliq va hisobot tizimi bo'yicha xalqaro mutaxassislarni jalb qilish, soliq masalalarida aniqlik kiritish. Xalqaro shartnomalar va soliq majburiyatlariga muvofiq hisobotlarni tayyorlash.

Xalqaro buxgalteriya standartlarini sug'urta korxonasida muvaffaqiyatli qo'llash uchun yuqoridagi yechimlarni amalga oshirish zarur. Bu, sug'urta kompaniyalarining global bozor talablariga mos ravishda faoliyat yuritishiga, shaffof hisobotlar va yuqori malakali xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. К.Б. Уразов Хизматлар соҳаси субъектларида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларида бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитнинг долзарб муаммолари. Республика онлайн илмий-амалий конференцияси материаллари 2020 йил 5 май куни. Самарқанд, СамИСИ, 2020. – 334 бет.
2. С.Н. Ташназаров Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш - давр талаби. Хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларида бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитнинг долзарб муаммолари. Республика онлайн илмий-амалий конференцияси материаллари 2020 йил 5 май куни. Самарқанд, СамИСИ, 2020. – 334 бет.
3. Qudbiyev, N. T. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o‘tish dolzarbligi-Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical research, 1(2), 56-64.
4. Nayotbek, Valiyev. "MHXS bo‘yicha birinchi hisobot tayyorlash muammolari." Новости образования: исследование в XXI веке 3.26 (2024): 71-80.
5. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333.
6. Нурматов, О. Т. (2018). Вопросы соответствия международным стандартам национального стандарта бухгалтерского учёта Республики Узбекистан. Вопросы науки и образования, (11 (23)).

<p>С.Абдусаидов</p> <p>Проблемы и решения применения МСФО в страховых компаниях</p> <p>Аннотация. В данной статье рассмотрены проблемы, возникающие при применении международных стандартов бухгалтерского учета в страховых компаниях, и предложены пути их решения, в частности, несовместимость существующих систем бухгалтерского учета с международными стандартами, технологические и методологические трудности, а также их различия. Подробная информация представлена в отношении местных налоговых и законодательных требований.</p> <p>Ключевые слова: международные стандарты, страховые компании, МСФО, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, стандарты бухгалтерского учета, договоры страхования.</p>	<p>S. Abdusaidov</p> <p>Problems and solutions in the application of IFRS in insurance companies</p> <p>Abstract. This article examines the problems that arise when applying international accounting standards in insurance companies and suggests ways to solve them, in particular, the incompatibility of existing accounting systems with international standards, technological and methodological difficulties, as well as their differences. Detailed information is provided regarding local tax and legislative requirements.</p> <p>Keywords: international standards, insurance companies, IFRS, accounting, financial reporting, accounting standards, insurance contracts.</p>
---	---

Pyos Pxomovich Ayubov – SamISI dotsenti, PhD
Muhriddin Ixtiyor o‘g‘li Ergashev – SamISI talabasi

VALYUTA BOZORI TAHLILI VA UNI ERKINLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada valyuta kursi mamlakat byudjetida, kutilayotgan inflyasiya va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni, hamda xalqaro iqtisodiy operatsiyalar milliy valyutaning boshqasiga ayriboshlanishi bilan bog‘liq munosabatlar tahlili haqida yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: operatsiya, prognozlash, akkreditiv, spekulativ, eksport, import.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini zamonaviy modernizatsiyalash bosqichida mamlakatning xalqaro valyuta – kredit munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish borasida

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.